

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

«PEDAGOGIKA» FAKULTETI

“Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish”yo`nalishi 303- guruh talabasi

Salayeva Nasiba Tojiboyevnaning

“MATEMATIKA O`QITISH METODIKASI”FANIDAN

*“Boshlang`ich matematik ta`lim jarayonida o`quvchilarni insonparvarlik
g`oyalari ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari*

(2-sinf misolida)”

mavzusidagi

KURS ISHI

TOPSHIRDI:

Salayeva Nasiba

QABUL QILDI:

Xudayberganov G`ayrat

URGANCH 2015 YIL

MUNDARIJA

I KIRISH3

II ASOSIY QISM

1. Boshlang'ich matematik ta'lim jarayonida o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalash metodikasi5
2. 2-sinf matematika darsligi tahlili va undagi o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari10
3. 2-sinfda matematikadan o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashga oid dars ishlanmalari.....19

XULOSA.....23

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....24

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kardlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "Davlat ta'lim standarti to'g'risidagi Nizom"ga binoan umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun ham alohida-alohida davlat ta'lim standarti talablari va me'yoriy ko'rsatkichi belgilab qo'yiladi.

"O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomda ta'kidlanganidek: "Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarsi asoslarining egallab olinishini ta'minlashga da'vat etilgan". Shunday ekan, ushbu asosda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim.

Davlat ta'lim standartlaridagi o'quv fani bo'yicha o'quv-metodik majmualar (dastur, o'quv rejasi, darsliklar)ni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek, o'quv fanlararo bog'lanish va bilimlarini muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligi va fanlararo bog'lanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muqaddas Qur'oni karimda va payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomning hadislaridainsonparvarlikning barcha qirralari o'z ifodasini topgan. Muqaddas kalimalarning deyarli hammasini yaxshi amallarning hidoyatiyu yomon odatlarning zarari bayon etilib, ulardan qanday qilib saqlanish lozimligi haqida yo'l-yo'riqlar ko'rsatib qo'yilgan.

Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Ali ibn Sinoning "Donishnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad

Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Nosir Hisravning “Saodatnoma”, “Ro‘shnoyinoma”, Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kabi minglab asarlar insonparvarlik ilmidan saboq beradi.

Insonparvarlikka oid dastlabki fikrlar “Avesto” kitobida qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o‘zbek xalqi o‘rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o‘gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalar asarlarida insonparvarlik masalalariga keng o‘rin berilgan.

Hadisi shariflardagi islomiy insonparvarlikka oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an‘analari Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko‘plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo‘qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur singari jahon ma‘naviyati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk bobokalonlarimizning insonparvarlik va ma‘naviyat haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi.

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining insonparvarlik haqidagi fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular o‘quvchilar qalbida insoniylik urug‘larining unib chiqishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishga yordam qiladi, ma‘naviy kuch-quvvat beradi. Xalqiga va qarindosh-urug‘lariga qo‘lidan kelgan barcha yaxshiliklarni qilish, ularning hurmatini joyiga qo‘yish kabi insoniylik fazilatlarini shakllantiradi. Bu esa imonli, e‘tiqodli, tarbiyali va ziyoli shaxsni voyaga yetkazishning asosiy maqsadidir. Shu bois biz uchun qadrli bo‘lgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug‘ mutafakkirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlaridan mustaqil O‘zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o‘quvchilar insonparvarlikini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga

muvofiqdir.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich matematik ta'lim jarayonida o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalash medodikasi

Boshlang'ich ta'limning milliy kadrlar tayyorlash tizimida ustuvor ahamiyat kasb etishi tamoman yangi xarakterdagi o'quv predmetlarini yaratish imkonini beradi. Bu tipdagi o'quv predmetlari ta'limni shu jumladan, boshlang'ich ta'limni umuminsoniylik hamda insonparvarlik prinsplari asosida tashkil etish sari keng yo'l ochadi. Avvalambor, insonparvarlik o'zi nima degan savolga javob izlaylik.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida shunday deyiladi:

Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Anash oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish- ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bitta buyuk zot- o'qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan tilga olishimiz kerak. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda anashu mashaqqaddli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi- bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Bu haqda fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so’zlarini eslaylik. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so’zlari o’tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo’lgan bo’lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko’ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Insonparvarlik – u insonni yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g’oyalar, qarashlar va e’tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmat, uning baxtli bo’lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonchdir. Insonparvarlik tamoyilini dastlab Yevropa Uyg’onish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval sharqda o’rtaga tashlangan, insoniylik degan ma’noni bildiruvchi “namlulu” so’zi shundan 3-4 ming yillar avvalgi Qadimgi Somir mixxatlarida uchraydi. Har bir inson boshqalarga mehr-muhabbat, murruvat bilan munosabat qilmog’i lozim. Insonparvarlik – umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Insonparvarlik yashash mohiyatining asl maqsadidir. Zero, yaratilgan mumtoz adabiyotlar ilm-u ma’rifatga yetaklovchi da’vatlar turmushning toboro yuksala borishi bu insonparvarlik g’oyalari bilan bevosita bog’liq. Yaxshilikni qalbiga jo qilgan, ezgu-niyatlarni o’ziga hamroh bilgan qalb egalarigina chiroyli, mazmunli umr kechiradilar, turmushimizni bezaydilar. . Insonparvarlik – Sharq falsafasining asosiy negizini tashkil etadi. A. Jomiy, A.Navoiy, X.Dehlaviy, P.Mahmud o’zlarining o’lmas asarlarida bu g’oyani ilgari surganlar. Ma’naviy va moddiy qadriyatlarimizda bu ruhiyat o’z aksini topgan. Insonparvarlik go’yalariga yetaklovchi yaxshilik, ezgulik, mehr-sadoqat, vafo, do’slik, hamjihatlik, o’zaro hurmat, hamiyat, mehnatsevarlik, rostgo’ylik, sabr-toqat, qat’iyatlilik, shukronalik, iffatlilik, lafslilik kabi sifatlarni e’tirof etish mumkin. Bu insoniy sifatlar irsiy sifatlar jumlasida namoyon bo’lishi bilan bir qatorda, ularni ahloqiy sifatlar sifatida shakllantirish, ro’yobga chiqarish va rivojlantirish azal-azaldan xalqimizning turmush tarziga, tarbiya an’analariga singib ketgan. Sharq

tarbiyasining asosiy ruhiyatini ham shular tashkil etadi. Har bir xonadon farzandining orzu-kamolini ko'rish va insoniy sifat va fazilatlarning shakllanganini ko'rish orzu-istagi bilan yashaydi. Hozirda halol, rostgo'y, insofli, fidoiy insonlardan bo'lgan fuqorolar jamiyatini qurish-davlatimizning mohiyatini anglatuvchi ijtimoiy- siyosiy yangilanishdir. Insoniy sifat va fazilatlar sifatida xushfe'llik, shirinsuxanlik, mehmondo'stlik, go'zalik kabilarni ham e'tirof etish mumkin. Xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi. Bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik kabi insoniy fazilatlar insonni ko'proq insonni iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o'z g'azabini bosa olishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi, so'zlagisi, biror gap bilan o'zini ko'rsatgisi kelib qolganda o'sha istakni to'xtata olishi kuchli irodani talab etadi. Yaxshilik insoning odobiga xulqiga bog'liq bo'lib, unda mardlik, ochiqko'ngilik, halollik singari me'yorlar mujassamlashgan. Ezgulik va qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik darajasiga ko'tarila oladi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning yaratgan buyuk asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar moboynida zavq-shavq ulashib, ularni komillikka chorlab kelmoqda.

Insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, ma'naviyati va madaniyati yetuk, or-nomusli, vatan ravnaqi yo'lida fidoiy, yurti xalqi uchun yonib yashaydigan, oilaparvar, ajdodlar oldidagi mas'uliyatini chuqur his qilgan, intellektual salohiyatli va jismonan sog'lom, bugungi kunning ta'biri bilan aytganda barkamol insonlarni insonparvarlik tarbiyalash bugungi kunda bosh maqsadimizdir. Demak barkamollikning bir qismini insonruhiy olamining ajralmas bo'lagini sifat va fazilatlari g'oyalari tashkil etadi. SHaxsdagi insonparvarlik g'oyalarini shakllantirish g'oyasi ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy g'oyalariga aylangan. Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va ular talablari asosida yaratilgan ta'lim konsepsiyalari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari hamda davlat

ta'lim standarti asosida belgilab berilgan ta'limning mazmun va mohiyatini ham shaxsdagi insonparvarlik sifat va fazilatlarini shakllantirish g'oyasini tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablarida ham uch yo'nalishning biri sifatida ma'naviy-madaniy yetuklikni shakllantirish g'oyasi ilgari surilgan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga davlat talablari asosida bilim berish bilan bir qatorda ulardagi mehnatsevarlik, odillik, mehribonlik, do'stlik, inoqlik, birdamlik, hamkorlik kabi sifatarni shakllantirish maqsadga muvofiq deb topilgan. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi maktabgacha ta'lim konsepsiyasining ma'naviy davomi bo'lib, unda ham bu g'oya o'z aksini topadi. Bolani har tamonlama shakllantirish, undagi jismoniy sog'lomlik, aqlan rivojlanish va ma'naviy kamolotning mujassam va mutanosib rivojlanishi boshlang'ich ta'limning asosiy xususiyatlari sifatida e'tirof etiladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim yakka holatdagi, o'z predmeti doirasida yopiq bo'lgan, faqat sanash, yozish va o'qishga oid malakalarini shakllantirish bilan chegaralangan ta'limtizimidan voz kechgan holda ona tili, matematika, inson va jamiyat ta'lim sohalari tarkibidagi predmetlar bo'yicha integratsiyalashgan va o'zaro mazmun uzviyligi va uzluksizligi namoyon bo'lgan rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan ta'lim tizimiga o'tdi. Bu jarayon maktab, maktab jamoasi, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni, shuningdek, hamkorlik munosabatlarini ham insonparvarlashtirish hamda ta'lim tizimini va ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish g'oyasini ilgari suradi. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish bu har bir predmetning mohiyatini undagi ichki go'zallikni, fan tarixi, fan kishilarining hayoti va ijodiy faoliyati, fanning turmush, hayot bilan o'zaro aloqadorligi va uning insoniyat tarixida va jamiyat ravnaqida tutgan o'rniga oid ma'lumotlar bilan boyitish demakdir. Maktabning butun faoliyatini o'quvchi va o'qituvchi shaxsiga qaratilmog'i maqsadga muvofiqdir. Maktab oldiga qo'ygan asosiy vazifa ham o'quvchilarga ta'lim berish bilan birgalikda ularning shaxsiy sifatlarini, insoniy fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir. Avvalambor, o'quvchi va o'qituvchi, o'qituvchi va

rahbariyat o`rtasida ijobiy muhitni shakllantirishdan boshlash kerak. O`qituvchi dastlab o`quvchilarni yaxshi ko`rishi, barchasini birdek ko`rishi, ularning salomatligini saqlashga harakat qilishi kerak. O`quvchilarga ularning talab va ehtiyojlarida, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda eng maqbul imkoniyatlarini yaratib bera olishi kerak, maktabning insonparvarlashtirish jarayoning faol ishtirokchilari sifatida sinf rahbarlari va ma`naviy – ma`rifiy ishlar bo`yicha derكتور o`rinbosarining zimmasiga yuklanadi. Bunda sinf rahbarlari va direktor o`rinbosarlari faqat boladagi samimiy munosabatlarning mohiyati va tavsifining o`zgartirishidagina iborat bo`lmay, balki shaxsiy insoniylikka, insonning qadr-qimmatini, xushahloqlik, jamoyat joylarida o`zini qanday tutish, mehr-shafqatlilik, rahmdillik kabi sifatlarni shakllantirishdan ham iboratdir. Tarbiyaviy ishlar tizimida insonparvarlikning, uning bola shaxsining shakllantirishda g`oyat ahamiyati katta. Avvalo, o`quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishi uchun, bola maktabga qadam qo`ygan kundan boshlab o`qituvchi o`z o`quvchilariga insonparvarlik tuyg`ulari, ya`ni vatanni sevishtirish, mehnat sevarlik, o`z-o`zini, sinfdoshlarini hurmat qilish, jamoa orasida o`zini tuta olish kabilarini shakllantirishi kerak, demak, ta`lim tizimini insonparvarlashtirishi o`quvchilariga insonparvarlik g`oyalarini singdirish, muloqot va munosabatlar tizimida insonparvarlik ruhiyatini hosil etish inson kamoli, uni komillikka da`vat etuvchi jarayondir. Bu jarayon shaxsidagi qiziqishi, o`qishga bo`lgan ehtiyojini ta`limiy faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bilan bir vaqtda o`quvchida keng qamrovlik, keng faoliyatlilik jihatlarini shakllantiradi

Mavjud ilmiy adabiyotlarda insonparvarlik millatning muhim belgilaridan biri ekanligi ta`kidlanib kelingan. Xususan “insonparvarlik”ni “ma`naviyat” tushunchasiga nisbatan keng ma`noda talqin etilib, ma`naviyatni insonparvarlikning bir “elementi” sifatida asoslanib kelingan. Oqibatda bunday qarashlar millatning ichki, ruhiy salohiyati nazariyada chetda qolgan va amaliyotda ma`naviyatning milliy o`zlikni anglashning

“zaxirasi”, uning ichki va tashqi qiyofasini ifoda ettiruvchanlik maqomi o'zining to'laqonli ifodasini topmay kelingan.

Milliy va insoniy manfaatlarga umumnisoniy g'oyalar xizmat qiladi. Chunki umumninsoniylik keng tushuncha bo'lib, yer yuzidagi barcha insonlarni mulkiy, diniy munosabatlari, dunyoqarashlari, millati, irqi, yashash joyi va boshqa o'ziga xosliklaridan qat'iy nazar manfaatlarini himoya qilishdir. Bu g'oyaning xususiyati shundaki, u milliy omillarning o'sishini tabiiy jarayon sifatida qaraydi, har bir millatning u ko'p sonlimi, boy yoki qashshoqmi, undan qat'iy nazar o'ziga xosligini rivojlantirishga huquqi borligini o'zida aks ettiradi. Bugungi kunda insoniyat oldida paydo bo'lgan eng dahshatli global muammolarni hal qilishda umuminsoniylik g'oyasi ahamiyatining oshib borilayotganligi ham shundadir.

Ma'lumki, insonparvarlik (ma'naviyat) inson va millat bilan bir vaqtda paydo bo'la boshlagan, u ham inson va millat kabi pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borgan. Masalaning eng muhim tomoni shuki, uni inson va millat yaratgani bilan birga uning ehtiyojiga aylangan. Shu ma'noda u ham insonni- “inson”, millatni- “millat” darajasiga ko'targan asosiy omillardan biri hamdir.

Insonparvarlikning inson va millatning ehtiyojiga aylanishi, tarixiy taraqqiyotning muhim omili ekanligi uning qadriyatiga aylanishini bildiradi. Demak, insonparvarlik (ma'naviyat) inson va millatning muhim belgisi bo'lishi bilan birga uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi va o'z navbatida uning ehtiyojiga aylangan qadriyati hamdir.

2-sinf matematika darsligi tahlili va undagi o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari

O'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashda masala va misollarning o'ri juda kattadir. Fikrimiz dalilini 2-sinf darsligi tahlili misolida

ko'rib o'tamiz. 2-sinf matematika darsligi (muallif: Nabiya Abdurahmonova, Lola O'rinboyeva 2014-y)ga hammasi bo'lib 170 soat ajratilgan. Davlat ta'lim standartida (2010-y) esa 2-sinf matematika darsligiga 170 soat ajratilgan.

2-sinf o'quvchisining matematik tayyorgarligiga qo'yiladigan minimal talablar.

O'quv yili oxiriga kelib 2-sinf o'quvchisi quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

Sonlar va hisoblashlar bo'yicha:

- 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlar ustida qo'shish va ayirishni bilish;
- Bir xonali sonlarni qo'shish va mos ayirish jadvallarini yoddan bilish;
- Ko'paytirish amali, uning komponentlari va natijasi, belgilari va asosiy xossalarini bilish;
- Bo'lish amali, uning komponentlari va natijasi, belgilari va asosiy xossalarini bilish;
- arifmetik amallar orasidagi o'zaro bog'lanish haqida tassavvurga ega bo'lish;
- Ko'paytirish va mos bo'lish jadvallarini yoddan bilish;
- sonli va harfiy ifodalarni bilish va ular orasidagi farqlarni ajrata olish;
- Eng sodda tenglama va uni yechish haqida tushunchaga ega bo'lish;
- butun va ulushlar: yarim, chorak va sonning qismlari haqida tushunchaga ega bo'lish;
- Uzunlik yangi o'lchov birliklari: metr va millimetrni bilish.
- 100 ichida o'rganilgan usullar asosida sonlarni og'zaki qo'shish va ayirish amallarini bajara olish;
- 100 ichida sonlarni ustun shaklidagi qo'shish va ayirishni amalga oshira bilish;
- ko'paytirishning asosiy xossasini hisoblashlarda qo'llay olish;
- $a + 5$, $a - 6$, $4 - s$, $4 \cdot a$, $a : 3$, $8 : s$ kabi harfli ifoda qiymatini harfning berilgan qiymatlarida hisoblay olish;
- sodda tenglamalarni noma'lumning berilgan qiymatlari orasidan tanlash yo'li bilan yechish;
- sodda tenglamalarni qo'shish va ayirish hamda ko'paytirish va bo'lish amallari orasidagi o'zaro bog'lanishlar yordamida yechish;

- qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari mohiyatini ochuvchi matnli masalalar. "...ta ortiq", "...ta kam", "...marta ortiq",

"...marta kam" tushunchalariga doir sodda 1 yoki 2 amalli masalalarni yechish;

- berilgan sonning yarmi, choragini va qismini topa olish;

- uzunlik o'lchov birliklari: metr, santimetr, detsimetr va millimetr bilan ishlay olish.

- turli o'lchov birliklarida berilgan kattaliklarni qo'shish va ayirish;

- hisoblashlarda qo'shish va mos ayirish jadvallarini yoddan qo'llay bilish;

- hisoblashlarda ko'paytirish va mos bo'lish jadvallarini yoddan qo'llay bilish;

- tovarning narxi, miqdori va umumiy bahosiga doir masalalarni yechish;

- vaqtni soatga qarab chamalab aniqlash;

- **1-sinfda o'tilganlarni takrorlash va umumlashtirish (10 soat)**

- **100 ichida sonlarni xonadan o'tib qo'shish va ayirish (35 soat)**

Harfli ifodalar

- **Ko'paytirish (24 soat)**

Doira, aylana. Aylana markazi, radiusi, diametri.

- **Bo'lish (36 soat)**

Millimetr (mm). Millimetr, santimetr, detsimetr, metr orasidagi munosabatlar;

Sonni qismini va qismiga ko'ra soni toppish, qismlarni taqqoslash;

Geometrik shakllarni qismlarga bo'lish

- **0, 1, 10 sonlari ishtirokida ko'paytirish va bo'lish. Arifmetik amallar ishtirokidagi ifodalar. Tenglamalar (55 soat)**

O'tilgan mavzularga doir masalalar.

Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, doira.

Shakllarni taqqoslash va bo'yash. Bo'laklari bo'yicha shaklni yasash va bo'laklarga ajratish.

- **O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash (10 soat)**

2-sinf matematika darsligida jami 170 soat ajratilgan bo'lib, shundan 157 ta mavzu 1 soat va 3 ta mavzu 2 soat hajmda, umumiy chorak uchun 17 ta nazorat ishi (10 nazorat ishiga alohida soat ajratilgan va 7 ta nazorat ishi yangi mavzu bilan birgalikda) o'tilishi ko'zda tutilgan. 170 soat umumiy 10 tabo'limga ajratilgan. Endi har bir choraklar bo'yicha shu bo'limlarni ajratilishini ko'rib chiqamiz.

I chorakda - 3 bo'lim (42 ta mavzu);

II chorakda - 3 bo'lim (33 ta mavzu);

III chorakda - 3 bo'lim (48 ta mavzu);

IV chorakda - 1 bo'lim (37 ta mavzu, shundan 3 tasi 2 soatlik hajmda);

Umumiy choraklar bo'yicha nazorat ishlari 17ta, shundan 10 nazorat ishiga alohida soat ajratilgan va 7 ta nazorat ishi yangi mavzu bilan birgalikda o'tilishi ko'zda tutilgan.

I chorakda - 4 ta nazorat ishi (1 ta nazorat ishi yangi mavzu bilan birgalikda);

II chorakda - 4 ta nazorat ishi (1 ta nazorat ishi yangi mavzu bilan birgalikda);

III chorakda - 5 ta nazorat ishi (3 ta nazorat ishi yangi mavzu bilan birgalikda);

IV chorakda - 4 ta nazorat ishi (2 ta nazorat ishi yangi mavzu bilan birgalikda).

Fikrimiz dalili sifatida insonparvarlik g'oyalari ifodalangan masalalarni ko'ramiz.

1-masala

Dilshodning 9 ta yong'og'I bor edi. Akasi unga yana 2 ta yong'oq berdi.

Dilshodda hammasi bo'lib nechta yong'oq bo'ldi?

Berilgan:

Bor di- 9 ta yong'oq

Berishda - 2ta yong'oq

Hammasi -? ta yong'oq

Yechilishi:

$9+2=11$ Javob: Dilshodda 11 ta yongo`q bor.

Ushbu masala orqali o`quvchilarga aka-ukalar o`rtasidagi mehr-muhabbat tuyg`ulari bo`lishi kerakligi tushuntirilib aytib o`tiladi.

2-masala

Feruz otasi bilan dehqon bozoridan 18 kg piyoz, undan 9 kg kam kartoshka sotib oldi. U hammasi bo`lib nechta kilogramm (kg) sabzavot sotib olgan?

Berilgan:

Piyoz – 18kg

Kartoshka – 9kg

Hammasi - ? kg sabzavot

Yechilishi:

$18+9=27$ Javob: Hammasi bo`lib 27 kg sabzavot sotib olingan.

Ushbu masala orqali o`quvchilarda mehnat haqida va kattalarga hurmatda bo`lish kerakligi to`g`risida tushuncha beriladi.

3-masala

Anvar bobosi bilan birga o`z hovlisiga 8 tup olcha, 7 tup olma ko`chati o`tqazishdi. Ular hammasi bo`lib, nechta tup ko`chat o`tqazishgan?

Berilgan:

Olcha – 8tup

Olma- 7 tup

Hammasi- ? tup ekishgan

Yechilishi:

$8+7=15$. Javob: 15 tup ko`chat ekishgan.

Ushbu masala orqali o`quvchilarda tabiatga bo`lgan munosabatlar tushuntirib o`tiladi.

4-masala

Bir haftada 1-hunarmand 9 ta sandiq, 2-hunarmand esa 8 ta sandiq yasadi. Ikkala hunarmand birgalikda nechta sandiq yasashgan?

Berilgan:

1-hunarmand- 9 ta sandiq

2-hunarmand – 8 ta sandiq

Ikkalasi - ?ta sandiq yasashgan

Yechilishi:

$9+8=17$. Javob: Ikkala hunarmand birgalikda 17 ta sandiq yasashgan.

Ushbu masala orqali o`quvchilarda mehnatga bo`lgan munosabatlar tushuntirib o`tiladi.

5-masala

Nargizaning onasi 8 ta katak, 3 ta bir chiziqli daftar olib keldi. Nargizaning onasi hammasi bo`lib nechta daftar olib kelgan?

Berilgan:

Katak daftar- 8ta

Chiziqli daftar- 3 ta

Hammasi - ? ta

Yechilishi:

$8+3=11$. Javob: Hammasi bo`lib 11ta daftar.

Ushbu masala orqali o`quvchilardan o`qishga bo`lgan qiziqishlari haqida so`raladi.

6-masala

Hunarmand 9 ta beshik, undan ikkita ko`p belanchak yasadi. Hunarmand qancha belanchak yasagan?

Berilgan:

Beshik – 9ta

Belanchak – undan 2 ta ko`p

Belanchak - ? ta

Yechilishi:

$9+9=18$

2-usuli

$9 \cdot 2 = 18$ Javob: Hunarmand 18ta belanchak yasagan.

Ushbu masala orqali o'quvchilarda mehnatga bo'lgan munosabatlar tushuntirib o'tiladi.

7-masala

Nodirning onasi bozordan 38 kg bodiring olib keldi. Shundan 30 kg bodiringni tuzladi. Uyda nechta kg bodiring qoldi?

Berilgan:

Bor edi – 38kg bodiring

Tuzlandi – 30kg bodiring

Qoldi - ? kg bodiring

Yechilishi:

$38 - 30 = 8$ Javob: 8 kg bodiring qolgan.

Ushbu masala orqali o'quvchilarda mehnatga bo'lgan muhabbatlarini yanada oshirish nazarda tutiladi.

8-masala

Karimda ertak kitoblari 9ta, she'riy kitoblari esa 2 ta. Hammasi bo'lib Karimda qancha kitob bor?

Berilgan:

Ertak kitoblar – 9ta

She'riy kitoblar – 2ta

Hammasi - ? ta

Yechilishi:

$9 + 2 = 11$. Javob: Hammasi bo'lib Karimning 11ta kitoblari bor ekan.

Ushbu masala orqali o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish nazarda tutiladi.

9-masala

Bir to'pda 90 m gazlama bor edi. Ko'ylak tikish uchun 50 m gazlama qirqib olindi. To'pda nechta mert gazlama qoldi?

Berilgan:

Bor edi – 90m gazlama

Qirqib olindi – 50m gazlama

Qoldi - ? m gazlama

Yechilishi:

$90-50=40$. Javob: 40 m gazlama qolgan.

Ushbu masala orqali o'quvchilarda kasb tanlashga bo'lgan qiziqishlari so'raladi va yo'nalish berib tushuntiriladi.

10-masala

Bog'da 4 ta qushlar uchib yurishyapti. Ularga 2 tasi kelib qo'shildi. Hammasi bo'lib nechta qushlar uchishyapti.

Berilgan:

Bor edi – 4 ta qush

Qo'shildi – 2 ta qush

Hammasi - ? ta qush

Yechilishi:

$4+2=6$. Javob: Hammasi bo'lib 6 ta qushlar uchishyapti.

Ushbu masala orqali o'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabati o'rganiladi va tushuntiriladi.

11-masala

Bo'yoqchi birinchi kuni 7 ta eshikni, ikkinchi kuni undan 4 ta ortiq eshikni bo'yadi. Bo'yoqchi ikki kunda hammasi bo'lib nechta eshik bo'yagan?

Berilgan:

1-kuni – 7ta eshik

2-kuni – undan 4ta ortiq eshik

Hammasi - ? eshik bo'yalgan?

Yechilishi:

$7+4=11$

2-kuni 11 ta eshik bo'yagan

$7+(7+4)=7+11=18$

Javob: Hammasi bo`lib 18ta eshik bo`yagan

Ushbu masala orqali o`quvchilarda kasbga bo`lgan qiziqishlari haqida tushunchalar beriladi.

12-masala

Sport to`garagiga 9ta futbol va 6 ta basketbol to`pi sotib olindi. To`garak uchun hammasi bo`lib qancha to`p sotib olingan?

Berilgan:

Futbol topi – 9ta

Basketbol topi – 6ta

Hammasi - ? ta top

Yechilishi:

$9+6=15$. Javob: Hammasi bo`lib 15ta to`p.

Ushbu masala orqali o`quvchilarga sport haqida tushuntirib o`tiladi.

13-masala

Elinur birinchi kuni 9 bet, ikkinchi kuni esa 8 bet kitob o`qidi. Elinur shu ikki kunda nechta bet kitob o`qidi?

Berilgan:

1-kuni – 9bet kitob

2-kuni – 8 bet kitob

Hammasi - ? bet kitob

Yechilishi:

$9+8=17$. Javob: Elinur ikkala kunda 17 bet kitob o`qigan.

Ushbu masala orqali o`quvchilarni o`qishga qiziqtirish, kitob bilim manbai ekanligini haqida tushuntirish kerak.

14-masala

Hovuzda 9 ta o`rdak suzib yurgan edi. Yana bir nechta o`rdak kelib qo`shilgandan keyin, hovuzdagi o`rdaklar 14 ta bo`ldi. Nechta o`rdak kelib qoshilgan?

Berilgan:

Bor edi – 9ta o`rdak

Qo`shildi - ? ta o`rdak

Hammasi – 14ta o`rdak

Yechilishi:

$14-9=5$. Javob: 5ta o`rdak kelib qo`shilgan.

Ushbu masala orqali o`quvchilarga uy hayvonlari, parrandalar haqida tushuntirib o`tiladi.

15-masala

Avtosaroyda 12 ta yengil mashina bor edi. Ertalab undan 9 tasi belgilangan yo`nalishlar bo`yicha ishga chiqib ketdi. Avtosaroyda nechta mashina qoldi?

Berilgan:

Bor edi – 12 tasi

Ketishdi – 9 tasi

Qoldi - ? tasi

Yechilishi:

$12-9=3$. Javob: Avtosaroyda 3 ta yengil mashina qolgan.

Ushbu masala orqali o`quvchilarga yo`l harakati qoidolari haqida to`xtalib o`tiladi.

**2-sinfda matematikadan o`quvchilarni insonparvarlik g`oyalari
ruhida tarbiyalashga oid dars ishlanmalari**

2-sinf darsligida “Tenglama. Tenglamalarni yechish” mavzusida o`quvchilarni insonparvarlik g`oyalari ruhida tarbiyalashga oid 1 soatlik dars ishlanma.

“Tenglama. Tenglama yechish” mavzusi II chorakda 3 bo`lim, 6 ta mavzu, 1 ta nazorat ishi va o`tilganlarni mustahkamlashga 1 soat ajratilgan.

Mavzu: 2-sinfda Tenglama . Tenglamalarni yechish

Darsning maqsadi:

A) Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga tenglama mavzusi misol va masalalar yordamida tushuntirish

B) Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalash.

D) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularni amallarni bajarishini avtomatizm darajasiga ko'tarish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: suhbat metodi.


Dars jihozi: 2-sinf matematika darsligi, tarqatma materiallar, doska, ko'rgazmali qurollar

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

- a) sinf ozodaligi tekshiriladi
- b) o'quvchilarning davomati aniqlanadi
- c) o'quvchilar diqqatini jamlab dars boshlanadi

I.O'tilgan mavzuni mustahkamlash



O'tgan darsda qaysi mavzuni o'tgan edik?

Harfli ifodalar deb nimaga aytiladi?

Harfli ifodalarda darcha o'rniga nima qo'yiladi?

keyin uyga vazifa bajarilganmi yo'qmi aniqlanadi.

II. Yangi mavzu bayoni

X(iks) harfi bilan topilishi kerak bo'lgan noma'lum son belgilanadi. X ya'ni noma'lum son qatnashgan ifodaga tenglama deyiladi.

Tenglama quyidagicha yechiladi: tenglik o'rinli bo'lishi uchun x ning o'rniga qanday sonni qo'yish kerakligini bilib olish kerak. $27+x=27$ – ko'rinishidagi tenglamani yeching. Bunda son 0, chunki 27 soniga 0 sonini qo'shganda 27 soni hosil bo'ladi. Shunda tenglik to'g'ri bo'lganini bilish mumkin.

Tenglamaning yechilishi bunday yoziladi:

$$27+x=27$$

$$x=27-27$$

$$x=0$$

Tekshirish:

$$27+0=27$$

$$27=27$$

2-misol

Noma'lum qo'shiluvchini toping.

$$...+3=10$$

$$9+...=14$$

$$x+7=10$$

3-misol

Tenglamani yeching va natijasini tekshiring.

$$1) 35+x=70$$

$$x=35$$

$$\text{Tekshirish: } 35+35=70$$

$$70=70$$

$$2) 14+x=24$$

$$x=24-14$$

$$x=10$$


Tekshirish: $14+10=24$

$$24=24$$

O'quvchilar birgalikda masala va misollarni birin-ketin yechishadi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash

O'qituvchi yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazadi.



Darsni yakuni: Dars jarayonida yaxshi qatnashgan o'quvchilar baholanib rag'batlantiriladi va uyga vazifa beriladi.

Uyga vazifa: 6- masala va 7-misol

6-masala

Hovlida 8 ta tovuq donalab yurgan edi. Yana bir nechta tovuq kelib qo'shilganidan keyin ular 13 ta bo'ldi. Nechta tovuq kelib qo'shilgan.

Berilgan:

Bor edi – 8 ta tovuq

Qo`shildi - ? ta tovuq

Hammasi – 13 ta tovuq

Yechilishi:

$$13-8=5 \quad 2\text{-usuli:}$$

Bu masalani tenglama usulida ham yechish mumkin.

Bore di – 8 ta

Qo`shildi – x ta

Hammasi – 13 ta

Yechilishi:

$$8+x=13$$

$$x=13-8$$

$$x=5$$

Tekshirish:

$$8+5=13$$

$13=13$ Javob: 5ta tovuq kelib qo`shilgan.

7-misol

1) $24+x=30$

$$x=30-24$$

$$x=6$$

Tekshirish:

$$24+6=30$$

$$30=30$$

2) $x+15=40$

$$x=40-15$$

$$x=25$$

Tekshirish:

$$25+15=40$$

$$40=40$$

3) $13+x=20$

$$x=20-13$$

$$x=7$$

Tekshirish:

$$13+7=20$$

$$20=20$$

XULOSA

Boshlang'ich matematik talim jarayonida o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharotlari(2-sinf misolida) mavzusidagi kurs ishimni kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'lgan reja asosida yozdim. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va shu

maqsadga erishish uchun bajarish kerak bo'lgan vazifalar belgilandi. Ishning asosiy qismi uchta rejadani iborat bo'lib, birinchi bandi "Boshlang'ich matematik talim jarayonida o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalash meto'dikasi" deb nomlanib unda boshlang'ich matematik talim jarayonining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Ikkinchi bandi "2-sinf matematika darsligi tahlili va undagi o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari" deb nomlanib unda 2-sinf o'quvchilariga mos masalalardan na'munalar berilgan. Uchinchi bandi "2-sinfda matematikadan o'quvchilarni insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashga oid dars ishlanmalari" va so'ngida xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati berilgan. Men kurs ishimni yozish jarayonida bir nechta metodik adabiyotlarni o'qidim, tahlil qildim, o'zimning matematik va metodik bilimlarimni oshirdim. Ushbu o'rgangan bilimlarimdan kelgusida pedagoglik faoliyatimda ham foydalanaman va o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashni va ularni mantiqiy tafakkurini rivojlantirishini hamda darsni qiziqarli o'tishiga zamin yaratishiga harakat qilaman.

Bundan tashqari o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatni, sinfdagi o'quvchilar orasida do'stlik, vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, mehrli, zehinli, bo'lish kabi tuyg'ularini shakllantirishni, jamoa bilan ishlashni, darsni har-xil metod va vositalar yordamida samarali o'tishini o'rgandim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A. Karimov “Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch”, “O`zbekiston” nashriyot- matbaa ijodiy uyidachop etildi. Toshkent -2008 y.
2. O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori: “Sharq” nashriyoti matbaa konserni bosh nashriyoti, 1998y.
3. O`zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayrlash Milliy dasturi” Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori: “Sharq” nashriyoti matbaa konserni bosh nashriyoti, 1998y.
4. Boshlang`ich ta`lim bo`yicha “Davlat ta`lim standarti” Boshlang`ich ta`lim dasturi. T, 2010 y.
5. Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi . Boshlang`ich ta`lim, 1998y, 6-son.
6. AbdurahmonovaN., O`rinboyeva L. 2-sinf matematika darsligi. T,2014y.
7. Bikboyeva N.U., Sidelnekova R.I., Adambekova G.A „Boshlang`ich sinfda matematika o`qitish metodikasi“ T:O`qituvchi 1996 y
8. Jumaeva M.E, Tadjieva Z.G`. “Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi” T, 2005 y.
9. Bikboyeva N.U., Yangibayeva E.Matematika 2-sinf uchun darslik-T: O`qituvchi,2004
10. Salaeva M “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o`quv –uslubiy majmua 2014y.
11. Intrnet saytlari:
 1. [www. ziynet. uz](http://www.ziynet.uz)
 2. www.google.uz
 3. www.pedagog.uz.

